

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

“РЎЙХАТГА ОЛИНДИ”

№ ВМ – 343 – 5А340801 – 2.01

“1” ИЮЛЬ 2003 й.

“ТАСДИҚЛАНДИ”  
Ўзбекистон Республикаси  
Олий ва ўрта махсус  
таълим вазирлиги

---

“8” ИЮЛЬ 2003 й.

**MOLIYAVIY HISOB-2  
Fanidan  
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 –“Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasidagi  
5A340901 – “Buxgalteriya hisobi (iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha”  
magistratura mutaxassisligi uchun**

**Tashkent – 2003**

**Tuzuvchi:** dots. Ochilov I.K.  
**Taqrizchilar:** dots. Hamdamov B.,  
dots. Mamatov Z.T.

«Moliyaviy hisob-2» fanini magistrantlarga o'qitishidan maqsad shundaki, mavjud buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlar talabiga mos ravishda yuritish, hisobotlarni konsolidatsiyalangan ko'rinishda tuzish va ularni hissadorlarga e'lon qilishni taqozo etmoqda.

«Moliyaviy hisob-2» fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob beradi.

Dasturda «Moliyaviy hisob-2» fanining maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqasi, egallanadigan bilim va ko'nikmalar hajmi, ma'ruza va amaliy darslar mavzulari, kompyuter va informatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari, referatlar mavzulari va kurs ishi loyihalari, talabalar bilimini reyting asosida baholash mezonlari hamda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati o'z ifodasini topgan.

Необходимость преподавания магистрантам предмета «Финансовый учет-2» обуславливается тем, что слушатели специальности «Бухгалтерский учет и аудит», зная действующую систему учета, смогли изучить их в соответствии с требованиями международных стандартов.

Данная программа по предмету «Финансовый учет-2» отвечает всем требованиям.

В программе они проявляются в целях и задачах, взаимосвязях с другими предметами, использовании компьютеров и информационных технологий, темах лекционных и практических занятий, рефератов и проектов курсовых работ, оценивании студентов по рейтинговой системе и список используемой литературы по предмету «Финансовый учет-2».

Necessity of teaching Financial account-2 to the masters is caused by that, students of a speciality «Accounting and audit» knowing operating system of the account, could study them according to the requirements the of international standards.

The given program of the subject «For Financial account-2» meets all requirements.

Aims and tasks, are reflected with use of computers and information technologies, programs of a subject, practical and a seminar employment, themes of course works and abstracts, evaluation students by rating system and lists of using literature on the subject «Financial account-2».

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (25 aprel 2003 yil 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

## 1.SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «**Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to'trisida**»gi Farmoni «**Ta'lim to'rrisida**»gi Qonun va **Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturini** hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgust 343-sonli Qaroriga muvofiq Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi. Mazkur standartlar asosida har bir o'qitiladigan fanlar uchun o'quv dasturini tayyorlash zaruriyati tug'ildi. "Moliyaviy hisob-2" fani bo'yicha ushbu dastur qo'yilgan barcha talablar asosida tuzilgan.

## **O'quv fanining maqsadi va vazifalari**

Mustaqil Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda bozor munosabatlarining rivojlanishi malakali buxgalter, auditor mutaxassislarini tayyorlashga zarurat tug'diradi.

O'quv rejasiga muvofiq, **5A340901 «Buxgalteriya hisobi», 5A340902 «Audit»** mutaxassisliklari «Moliyaviy hisob» fanini o'rganadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisob va hisobotni rivojlangan davlatlar talabi doirasida yuritish davr talabidir. Unda moliyaviy hisobning kontseptual asoslari, dunyoviy muammolaridan biri bo'lgan ekologik xarajatlar va konsolidatsiyalangan hisobot tuzish muammolariga bag'ishlangan. Korxonalar va xo'jaliklardagi mablag'lar va ularning tashkil topish manbalarining harakatini, xo'jalik muomalalarini hisobga olish, ularni hujjatlashtirish, umumlashtirishni ta'minlash, mulkiy, moliyaviy faoliyati to'g'risidagi to'liq va ishonarli ma'lumotlarini shakllantirish hamda hisobotlarni tuzish, masalalarni hal qilish, buxgalteriya hisobi yordamida shakllanadigan davriy moliyaviy hisobot ma'lumotlarining realligini hamda mahsulotlar tannarxiga qo'shiladigan va qo'shilmaydigan xarajatlarni bir - biridan ajratib hisobga olishni ta'minlashdan iborat. Moliyaviy natijalarni to'g'ri hisobga olish, tashkilotlar bilan hisoblashishlarni to'g'ri tashkil qilishni davlatimiz qonunlari, hukumat qarorlari, me'yoriy hujjatlar asosida o'rganiladi.

### **Fan bo'yicha magistrantlarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar**

Davlat ta'lim standartlariga mazkur mutaxassislikda o'qiydigan magistrantlar buxgalteriya hisobini chuqur o'rganishi hamda etuk mutaxassis bo'lishi uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

- huquqiy davlat, demokratik jamiyat yoshlari, ayniqsa, «Buxgalteriya hisobi», «Audit» mutaxassisligini egallovchi

magistrantlar huquqshunoslik, davlat va jamiyat qurilish fanlarini chuqur egallagan bo'lishi;

- bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari va qonuniyatlarini mukammal o'rganishi;
- milliy g'ururga, yuqori madaniyatga ega bo'lishi, o'zbek xalqining tarixini bilishi;
- mutaxassislik fani bilan bog'liq fanlarni mukammal o'rganishi;
- fan va texnika yutuqlariga qiziquvchan, o'ziga nisbatan talabchan, o'rganayotgan faniga, Vataniga fidoyi bo'lishi kerak.

O'qitish jarayonida nazariy bilim bilan amaliyot birligiga talablarning ilmga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga, ko'proq magistrantlarning mustaqil bilim olishiga erishish zarur.

### **O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqadorligi**

«Moliyaviy hisob-2» xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mulkiy va moliyaviy faoliyatini hisobga olishda o'z uslubiyatiga ega bo'lishi bilan birgalikda bevosita bog'liqligi sababli quyidagi fanlar ham magistrantlarga rejalashtirilishiga qarab chuqur o'rgatiladi:

- Fanlarning falsafiy masalalari;
- Ilmiy ijodiyot metodologiyasi;
- Amaliy chet tili;
- Axborot texnologiyalari;
- Ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti;
- Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi;
- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- Boshqaruv hisobi-2;
- Amaliy audit;
- Moliyaviy tahlil-2;
- Banklarda hisob va to'lov tizimi;
- Tashqi iqtisodiy faoliyat va valyuta operatsiyalari hisobi;

- Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti;
- Moliya matematikasi;
- Hozirgi zamon davlat siyosatining dolzarb muammolari;
- Davlat moliyasini boshqarish.

### **Fanni o'qitishdagi innovatsion texnologiyalar**

Magistrantlarga fanni zamonaviy usulda o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimlarini mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- magistrantlarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta'minlash;
- magistrant o'z bilimini o'zi baholashi uchun sharoit yaratib berish;
- magistrantlarning bilimini tayanch iboralar asosida baholashni joriy qilish;
- magistrantlarni kichik guruhlariga bo'lib, o'qituvchilar rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish;
- iqtidorli magistrantlar bilan ularni qiziqtiruvchi mavzular bo'yicha qo'shimcha darslar tashkil qilish;
- magistrantlarga «**1S:Buxgalteriya**», «**Turbo-Buxgalteriya**» va boshqa dasturlar bilan ishlash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish va h.k.

### **Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar**

«Moliyaviy hisob-2» fani o'quv bo'limi tomonidan rejalashtiriladi va magistratura magistrantlariga o'quv rejasi bo'yicha birinchi kursning birinchi semestrda o'qitiladi. «Moliyaviy hisob-2» fani ma'ruza va amaliy mashg'ulot shaklida auditoriyada o'rganiladi. Auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun magistrantlar korxonada va tashkilotlarda amaliyot o'taydilar.

Magistrantlarning bilimlari o'qituvchilar hamda belgilangan hay'at a'zolari tomonidan reyting usulida baholanadi.

O'quv jarayonida rejaga muvofiq oldin ma'ruza keyin amaliy mashg'ulot o'tkaziladi. Magistrantlarga o'tilgan mavzular bo'yicha mustaqil o'rganishi uchun uy vazifalari beriladi va ularning bajarilganligi darajasi reyting yordamida baholanadi. Magistrantlarning olgan bilimlarini aniqlashning og'zaki va yozma usullari ham qo'llaniladi.

### **Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha soatlar hajmi**

«Moliyaviy hisob-2» fanini o'rganish bo'yicha «Buxgalteriya hisobi» va «Audit» mutaxassisligi, shuningdek Oliy ta'limning bilim sohasi bo'yicha boshqa mutaxassislari uchun o'quv rejasida jami 180 soat belgilangan. Jumladan: jami auditoriya soati - 120, shundan ma'ruza 60, amaliy mashg'ulot 60, mustaqil ta'lim 60 soat belgilangan. Bu fan bo'yicha kurs ishi yoziladi.

## **2. FAN DASTURI**

### **Ma'ruza mashg'ulotlarining mavzulari Moliyaviy hisob-2 fanining predmeti va kontseptual asoslari**

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini tashkil qilish. Moliyaviy va boshqaruv hisobi - buxgalteriya hisobining asosiy qismlaridir. O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobiga doir me'yoriy hujjatlari. *Moliyaviy hisobning mohiyati va asosiy vazifalari*. Moliyaviy hisobning axborot bilan ta'minlanishi, tuzilishi va asosiy tamoyillari. Moliyaviy hisobot va uning tarkibi.

#### **Ekologik xarajatlarning moliyaviy hisobda aks ettirilishi**

Tabiiy resurslardan foydalanish va ularni baholash. Ekologik omillar va ularning ishlab chiqarish faoliyatiga ta'siri. *Tabiatning ifloslanishi va atrof muhitning tozaligini saqlash xarajatlarini hisobi*. Inson salomatligiga ta'sir qiluvchi omillar va ularning sog'lig'ini saqlash, sug'urtalash xarajatlari. Ishlab chiqarilgan tovarlarning ekologik jihatdan tozaligini baholash va ularning hisobi. Ekologik xarajatlarni hisobga olish va baholash.

#### **Oborotdan tashqari aktivlar hisobi**

Uzoq muddatli aktivlarni sotib olish, baholash hisobi. Amortizatsiyani hisoblash usullari va ularni qo'llashda hisob siyosatining ahamiyati. *Asosiy vositalar sotib olingandan keyingi amalga oshiriladigan xarajatlar hisobi*. Asosiy vositalarning keyingi baholanishi. Operatsion va moliyaviy ijara hisobi. Ijarachi tomonidan amalga oshiriladigan operatsion va moliyaviy ijara hisobi. Er ijarasining xususiyatlari. Nomoddiy aktivlar hisobining tamoyillari. Ilmiy tekshirish va tajriba-konstruktorlik ishlari bo'yicha xarajatlarni hisobga olish.

#### **Uzoq muddatli investitsiyalar hisobi va ularni moliyalashtirish manbalari**

Uzoq muddatli investitsiyalar tarkibi va turkumlanishi. Kapital quyilmalar hisobi. Pudratichilar bilan hisob-kitoblar. Xo'jalik usulidagi kapital qurilishlar hisobi. *Qurilish ob'ektlarining inventar qiymati tarkibi*. Tugallangan va tugallanmagan qurilish hisobi. Tugallanmagan qurilish ob'ektlarining inventar qiymatini aniqlash. Uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari. Ularni shakllantirish va foydalanish.

#### **Xususiy kapital va zaxiralarni boshqarishni tashkil qilish**

Xususiy kapitalning tarkibi. Ustav kapitalining tashkil qilinishi va uning o'zgarishi hisobi. *Qo'shilgan kapitalning shakllanishi va uning hisobi*. Zaxira kapitalining tuzilishi va uning hisobi. Taqsimlanmagan foyda va qoplanmagan zararlar, maqsadli fondlar hisobi. Dargumon qarzlari zahiralarni tashkil qilish va foydalanish.

#### **Konsolidatsiyalashgan buxgalteriya hisobotining tarixi, milliy o'ziga xosligi va uni tartibga solish**

Konsolidatsiyalashgan hisobotning maqsadi, vazifalari va ahamiyati. Yig'ma hisobot va uning konsolidatsiyalashtirilgan hisobotdan farqi. Konsolidatsiyalashgan hisobot tuzishning asosiy tamoyillari va qoidalari. Xolding kompaniyalar tashkil qilinishi. Konsolidatsiyalashtirilgan hisobotning tarkibi va tuzilishi. Konsolidatsiyalashtirilgan hisobotlarni tayyorlash tartibi. Konsolidatsiyalashgan hisobotning tarkibi, tuzish bosqichlari va tartibi. Konsolidatsiyalashtirilgan balans tarkibi. *Tobe jamiyatlarning hisobotini «Equity» usuli*

*bilan umumlashtirish.* Kompaniya sotib olinganda va qo'shilganda foyda va zararlarning boshlang'ich ishlab chiqarish konsolidatsiyalashtirilgan hisoboti.

### **Korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati hisobi**

Eksport operatsiyalari hisobi. Hisoblashlar va eksport muomalalari to'lovlari hisobi. Eksport qiluvchi korxonalarda eksport muomalalari umumiy tizimi. *Chetdan sotib olingan asosiy vositalar va materiallar hisobi.* Chetdan sotib olingan tovarlar hisobi. Chetdan tovar yuboruvchi korxonada import operatsiyalari muomalalarining umumiy tizimi.

### **Moliyaviy hisobda axborot vositalarini qo'llash**

Moliyaviy hisobotni ma'lumotlar bazasi bilan ta'minlash. Moliyaviy hisobot ma'lumotlarni dastur asosida tahlil qilish. Moliyaviy hisobotni tuzishdagi jarayonlarni hisobga olish. *Xo'jalik muomalalarini komp'yuterda aks ettirish va ma'lumotlarni qayta ishlash.* Korxonada samaradorligini moliyaviy hisobotlar natijalari asosida hisoblash.

### **Moliyaviy hisobot**

Buxgalteriya hisobiga qo'yiladigan talablar. Moliyaviy hisob va hisobotning o'zaro bog'liqligi. *Balans moddalari va buxgalteriya hisobotini baholash.* Balansning alohida moddalari bo'yicha baholanishi. Boshqa hisobot shakllarini to'lg'azish va taqdim etish tartibi hamda muddatlari.

## **3. AMALIY (SEMINAR) MASHG'ULOTLARINING MAVZULARI**

### **Moliyaviy hisobning predmeti va kontseptual asoslari**

Buxgalteriya hisobini tashkil qilish. Moliyaviy va boshqaruv hisobi - buxgalteriya hisobining asosiy qismlaridir. O'zbekiston Respublikasining me'yoriy hujjatlari. Moliyaviy hisobning mohiyati va asosiy vazifalari.\* Moliyaviy hisobning axborot bilan ta'minlanishi, tuzilishi va asosiy tamoyillari. Moliyaviy hisobot va uning tarkibi.

### **Ekologik xarajatlarning moliyaviy hisobda aks ettirilishi**

Korxonada tabiiy resurslardan foydalanish va ularni baholash. Tabiatni ifloslanishi va atrof muhitni tozaligini saqlash xarajatlarini hisobi. Ekologik omillar va ularning ishlab chiqarish faoliyatiga ta'siri.\* Inson salomatligiga ta'sir qiluvchi omillar va ularning sog'lig'ini saqlash, sug'urtalash xarajatlari. Ishlab chiqarilgan tovarlarning ekologik jihatdan tozaligini baholash va ularning hisobi. Ekologik xarajatlarni hisobga olish va baholash.

### **Oborotdan tashqari aktivlar hisobi**

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda uzoq muddatli aktivlarni sotib olish, baholash hisobi. Amortizatsiya hisoblash usullari. Asosiy vositalar sotib olingandan keyingi amalga oshiriladigan xarajatlar hisobi. Asosiy vositalarning keyingi baholanishi. Operatsion va moliyaviy ijara hisobi\*. Ijarachi tomonidan amalga oshiriladigan operatsion va moliyaviy ijara hisobi. Er ijarasining xususiyatlari. Nomoddiy aktivlar hisobining tamoyillari. Ilmiy tekshirish va tajriba konstruktorlik ishlari bo'yicha xarajatlarni hisobga olish.

### **Uzoq muddatli investitsiyalar hisobi va ularni moliyalashtirish manbalari**

Korxonada mablag'lari tarkibida uzoq muddatli investitsiyalar. ularning tarkibi va turkumlanishi. Kapital qo'yilmalar hisobi. Kapital qo'yilmalar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar. Xo'jalik usulidagi kapital qurilishlar hisobi. Qurilish ob'ektlarining inventar qiymati

tarkibi. Tugallangan va tugallanmagan qurilish hisobi. Tugallanmagan qurilish ob'ektlarining inventar qiymati aniqlash.\* Uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari. Ularning shakllantirilishi va foydalanishi. Investitsiyalar samaradorligini baholash.

### **Xususiy kapital va zaxiralarni boshqarishni tashkil qilish**

Korxonada xususiy kapitalning tarkibi va tuzilishi. Ustav kapitalining shakllanishi va uning o'zgarishi hisobi. Qo'shilgan kapitalning shakllanishi va uning hisobi. Zahira kapitalining tuzilishi va uning hisobi.\* Taqsimlanmagan foyda va qoplanmagan zararlar, maqsadli fondlar hisobi. Dargumon qarzlari zahiralarni tashkil qilish va foydalanish. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot va uning tuzilish tartibi.

### **Konsolidatsiyalashtirilgan buxgalteriya hisoboti**

Konsolidatsiyalangan hisobotni tuzishning zarurligi. Konsolidatsiyalangan hisobotni tuzishda 8-sonli BHMA bilan tanishish. Xolding kompaniyalarning tashkil qilinishi. Konsolidatsiyalashtirilgan hisobotning tarkibi va tuzilishi. Konsolidatsiyalashtirilgan hisobotlarni tayyorlash tartibi. Konsolidatsiyalashtirilgan balans tarkibi\*. Kompaniya sotib olinganda va qo'shilganda foyda va zararlarining konsolidatsiyalashtirilgan hisoboti.

### **Korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati hisobi**

Tashqi iqtisodiy faoliyatda qo'llaniladigan operatsiyalar va ularni hisobda aks ettirishning o'ziga xos xususiyatlari. Eksport operatsiyalari hisobi. Hisoblashlar va eksport muomalalari to'lovlari hisobi.\* Eksport qiluvchi korxonalarda eksport muomalalari umumiy tizimi. Chetdan sotib olingan asosiy vositalar va materiallar hisobi. Chetdan sotib olingan tovarlar hisobi. Chetdan tovar yuboruvchi korxonada import operatsiyalari muomalalari umumiy tizimi.

### **Moliyaviy hisobda kompyuter vositalarini qo'llash**

Informatsion texnologiyalar asosida moliyaviy hisobni yuritishning o'ziga xos xususiyatlari. Moliyaviy hisobni yuritish bo'yicha informatsion dasturlar. Ularning turlari va qo'llanilish tartibi. Moliyaviy hisobot ma'lumotlarni dastur asosida tahlil qilish. Moliyaviy hisobotni tuzishda ma'lumotlar manbasi bilan ta'minlanishi. Moliyaviy hisobotni tuzishdagi jarayonlarni hisobga olish.\* Xo'jalik muomalalarini kompyuterda aks ettirish va ma'lumotlarni qayta ishlash. Korxonada samaradorligini moliyaviy hisobotlar natijalari asosida hisoblash.

### **Moliyaviy hisobot**

Korxonalar moliyaviy hisobotining tuzilishi va tarkibi. Moliyaviy hisob va hisobotning o'zaro bog'liqligi.\* Balans moddalarini va buxgalteriya hisobotini baholash. Balansning alohida moddalarini bo'yicha baholanishi.

### **Kurs ishlarining mavzulari va bajarishga oid uslubiy ko'rsatmalar**

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining roli.  
Xo'jalik sub'ektlarida buxgalteriya hisobining o'rni va vazifalari.  
Mustaqil O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobini isloh qilish.  
Buxgalterlik hisobining tamoyillari.  
Moliyaviy hisob, uning roli va vazifalari.  
Moliyaviy hisobotning tarkibi va mazmuni.  
Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish.

O'zbekiston Respublikasida xalqaro buxgalteriya hisobi standartlariga o'tish muammolari.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari.

Asosiy vositalar hisobi.

Asosiy vositalardan foydalanish hisobi.

Asosiy vositalarni ta'mirlash hisobi.

Asosiy vositalarni uzoq muddatli ijaraga olish va berish hisobi.

Asosiy vositalarni xo'jalikdan chiqarish hisobi. Kapital qo'yilmalar hisobining xususiyati.

Asosiy vositalar hisobini avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish.

Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar hisobi.

Lizing muomalalari hisobi.

Qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar hisobi.

Nomoddiy aktivlar hisobi.

Materiallar hisobi.

Materiallarni omborda hisobga olishni tashkil qilish.

Materiallar hisobini avtomatlashtirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat va ish haqi hisobini tashkil qilish.

Mehnat va ish haqi hisobini avtomatlashtirish.

Sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish.

To'g'ri va egri xarajatlar hisobi.

Pul mablag'lari hisobi.

Davlat byudjeti bilan hisoblashishlar.

To'g'ri soliqlar yuzasidan hisoblashishlar hisobi.

Egri soliqlar bo'yicha hisoblashishlar.

Turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashishlar.

Sho'ba korxonalar bilan hisoblashishlar.

Hissadorlar bilan hisoblashishlar.

Moliyaviy natijalar hisobi.

Fondlar hisobi.

Banklar bilan kreditlar yuzasidan hisoblashishlar.

Ustav kapitali va uning o'zgarishi hisobi.

Hissadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish.

Byudjetdan tashqari tashkilotlar bilan hisoblashishlar.

Er va er resurslaridan foydalanish hisobi.

Tinglovchilar mutaxassislik fani bo'yicha olgan nazariy bilimlari hamda amaliyotda orttirgan tajribalariga asoslanib o'zining ilmiy salohiyatini aniqlash uchun hamda o'zini qiziqtirgan mavzusini chuqurroq o'rganish maqsadida kurs ishi yozadi. Kurs ishini yozganda, tinglovchi yuqorida keltirilgan mavzulardan birini tanlab oladi. Kurs ishini yozish hamma tinglovchi uchun majburiy bo'lib, mavzuni tanlash ixtiyoriydir. Kurs ishi yozilishi bo'yicha uning oldiga qo'yilgan talablar, kurs ishini yozish va himoya qilish bo'yicha uslubiy qo'llanmada batafsil yoritilib berilgan. Kafedra tomonidan kurs ishlari mavzulari har yili yangilanib va to'ldirilib boriladi.

### **Informatsion texnik vositalar**

«Moliyaviy hisob-2» fanini o'rganishda tinglovchilar amaliy yordam tariqasida moliyaviy hisob bo'yicha qo'llaniladigan turli hil shakl, chizmalar, slaydalar bilan ta'minlanadi. Ulardan foydalangan holda quyidagilarni o'rganish mumkin:

1. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash usullari;
2. Asosiy vositalarni baholash;



3. Materiallarni o'rtacha tannarx, FIFO va LIFO usullarida baholash tartibi;
4. Mehnatga haq to'lash va uni hisobga olish;
5. Mehnat haqidan daromad solig'ini hisoblash va uni to'lash tartibi;
6. Nomoddiy aktivlarni dastlabki hujjatlarda aks ettirish tartibi.
7. Investitsiyalarni baholash va ularni hisobga olish;
8. Kapital qo'yilmalarni hisobga olish;
9. Ustav kapitalini shakllantirish;
10. Fondlarni tashkil etish;
11. Moliyaviy natijalarni aniqlash;
12. Moliyaviy hisobotlarni tuzish tartiblari. Tinglovchilar moliyaviy hisob fanini o'rganishda

axborot vositalaridan ya'ni internet tizimidan ham keng foydalanadi. Jumladan, quyidagi sayd va elektron pochtalardan foydalanishi mumkin:

1. <http://www.apb.org.uk> (Auditing Practices Board)
  2. <http://www.nao.gov.uk> (UK National Audit Office)
  3. <http://www.iasc.org.uk> (The Institute of Internal Auditors - United Kingdom)
  4. <http://www.iasc.org.uk> (International Accounting Standards Committee)
  5. <http://www.aicpa.org/index.htm> (American Institute of Certified Public Accountants)
- Shuningdek, ommaviy axborot vositalaridan mutaxassisligiga tegishli materiallar olinadi.

#### **4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHQA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI**

"Moliyaviy hisob-2" fanini o'rganuvchi magistrantlar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash maqsadida mutaxassislik kafedra o'qituvchilari rahbarligida o'quv rejasiga muvofiq mustaqil ta'lim oladilar.

Fanni o'rganishda magistrantlar amaliy yordam tariqasida "Moliyaviy hisob-2" fani bo'yicha qo'llaniladigan turli shakldagi chizmalar, slaydlar bilan ta'minlanadi va ulardan foydalanishadi.

Magistrantlar "Moliyaviy hisob-2" fanini o'rganishda axborot vositalaridan ya'ni Internet tizimidagi quyidagi sayd va elektron pochtalardan foydalanishlari mumkin:

1. <http://www.apb.org.uk> (Auditing Practices Board)
2. <http://www.nao.gov.uk> (UK National Audit Office)
3. <http://www.iaa.org.uk> (The Institute of Internal Auditors-United Kingdom)
4. <http://www.iasc.org.uk> (International Accounting Standards Committee)
5. <http://www.aicpaj3rg/index.html> (American Institute of Certified Public Accountants)
6. [www.uza.uz](http://www.uza.uz) (O'zbekiston milliy axborot agentligining turli sohalarga doir kundalik yangiliklari)
7. [www.cer.uz](http://www.cer.uz) (Iqtisodiy izlanishlar markazi)
8. [www.pravo.uz](http://www.pravo.uz) (Iqtisodiy qonunlar to'plami)
9. [www.referat.ru](http://www.referat.ru). Shuningdek, respublikada iqtisodiy yo'nalishda chop etilayotgan tegishli materiallarni olishadi.

Shuningdek, magistrantlarga O'zbekiston Respublikasi auditorlar palatasi, Buxgalterlar va auditorlar Milliy Assosiatyasi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent Moliya institutida tayyorlangan o'quv filmlar, didaktik materiallar va multimedik ilovalardan foydalanish tavsiya etiladi.

#### **4. O'ZLASHTIRISH NAZORATI**

Magistrantlar «Moliyaviy hisob-2» fani bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- joriy baholash (J.B.);
- oraliq baholash (O.B.);

- yakuniy baholash (Ya.B.).

JB hamda OB turlari va belgilangan ballar miqdori (o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatlarning 70%) o'qitilayotgan fanga mas'ul bo'lgan kafedra qarori bilan mavzuning murakkabligi va zaruriyligiga qarab quyidagi mezonlar bo'yicha taqsimlanadi:

- Magistrantlar o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha manbalarni konspektlashtirish;
- dolzarb mavzularda ma'ruza matni yoki referat yozish;
- ilmiy tezis (maqola)lar tayyorlash, ilmiy-uslubiy anjumanlarda chiqishlar qilish;
- ilmiy adabiyotga va izlanish natijalariga annotatsiyalar yozish;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarish;
- xorijiy tillarda chop etilgan adabiyotlarni tarjima qilish;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash.

YaBda fan bo'yicha dastur to'la o'tilgandan so'ng magistrantlarning bilimi baholanadi. YaB turiga ajratilgan ballar o'quv rejasida fanga ajratilgan soatlarning 30% miqdorida belgilanadi. Barcha fanlar bo'yicha YaB bosqichi yozma ish usulida o'tkaziladi.

Tayanch tushunchalarga asoslangan yozma ish usulini o'tkazish tartibi «Reyting tizimining yakuniy baholash bosqichida «Yozma ish» usulini tatbiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom» bilan belgilanadi. OB va JB turlari yozma ish yoki boshqa usullarda (og'zaki, test, himoya va hokazo) ham o'tkazilishi mumkin. Magistratura dekanati belgilaigan tartibda fan bo'yicha magistrantlarning JB, OB va YaB turlaridagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tahlil etib boradi va ularning natijalarini belgilangan shakldagi qaydnomalarda aks ettiriladi.

Reyting natijalari oliy ta'lim muassasasining Ilmiy Kengashida muntazam ravishda muhokama etib borilib, tegishli qarorlar qabul qilinadi. Semestr (o'quv yili) davomida o'qitilgan fan bo'yicha maksimal ballning 55% va undan yuqori foizini to'plagan magistrant "**qoniqarli**" o'qiyotgan deb hisoblanadi. Fan bo'yicha maksimal ballning 55% dan kam bo'lgan ballni to'plagan magistrant "**qoniqarsiz**" o'qiyotgan (akademik qarzdor) deb hisoblanadi. Semestr davomida fan bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86-100 foiz «a'lo»;
- 71-85 foiz «yaxshi»;
- 55 - 70 foiz «qoniqarli».

## **6. ADABIYOTLAR**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni. T., 1996.
2. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom. Toshkent, 1999 yil, 54-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 1997 yil 15 yanvar 5-son buyrug'i (1997 yillik va yarim yillik hisobotni to'ldirish to'g'risida).
4. Bobojonov O.U. Moliyaviy hisob. -T.: Mehnat, 1999.
5. Rizaqulov A.A. Uzoq muddatli aktivlar hisobi. -T.: Fan, 1998.
6. Rizaqulov A.A., Ibrohimov A.K., Hasanov B.A., Usanov A.U., Mamatov Z.T. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. I-III tom. TMI va IUT, 1994.
7. Sotivoldiev. A., Itkin Yu. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. (Yangi schyotlar rejasi asosida), PB va AA-2002. 1-2 tom.
8. Moliyaviy hisob. KARANA korporatsiyasi - 2000.
  9. O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari to'plamlari. 2000-2002.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. -T.: O'zbekiston, 1997.
2. Sanaev I.S. «Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi, nazorat va moliyalashning dolzarb masalalari». -T.: Mehnat, 1991.
3. Sotivoldiev A.S. «Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi». -T.: Mehnat, 1991.
4. Frenk Vud. Buxgalterskiy uchet dlya predprinimateley. -M.: OOO Askeri, 1996.